O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ 1134
10. 01. 2024

“TASDIQLAYMAN”
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor:
_____ prof. A.Soleyev
2024-yil “__” _____

FILOLOGIYA FAKULTETI

ISTIQLOL DAVRI ADABIYOTI VA ADABIYOT NAZARIYASI

UZLUKSIZ MALAKAVIY AMALIYOT BO‘YICHA

O‘QUV DASTURI

Kunduzgi bo‘lim 3-kurs talabalari uchun

Bilim sohasi:	200000 – San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi:	230000 – Tillar
Ta’lim yo‘nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o’qitish: o’zbek tili

Samarqand – 2024

Pedagogik amaliyotning ishchi o‘quv dasturi o‘quv dastur va o‘quv ishchi rejaga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Ernazarova G. – Sh.Rashidov nomidagi SamDU istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi assistenti

Taqrizchilar:

Hasanov Sh. – Sh.Rashidov nomidagi SamDU istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi mudiri, professor.

Davronova M. - Sh.Rashidov nomidagi SamDU istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi professori

Fanning o‘quv dasturi filologiya fakulteti istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi ning 2024-yil 2__-apreldagi 9-son yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri **Sh.Hasanov**

Mazkur o‘quv dastur universitet o‘quv-uslubiy Kengashining 2024-yil 30-apreldagi № 10-sonli kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan.

Fakultet ilmiy kengashi raisi: **prof. Eltazarov J.D.**

Fakultet o‘quv-uslubiy kengashi raisi: **prof. Nosirov A.N.**

Kelishildi:

O‘quv- uslubiy boshqarma boshlig‘i: **Muranov Sh.A.**

Kirish

Pedagogik amaliyot o‘quv jarayonining bevosita ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan tarkibiy qismi bo‘lib, barcha talabalar ushbu dasturda belgilangan tartibda topshiriqlarni bajarishlari va hisobotlarni himoya qilishlari shart. Pedagogik amaliyotning asosiy maqsadi tegishli ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha olingan nazariy va amaliy bilimlarni amalda tatbiq qilishga o‘rganish, uni kengaytirish, chuqurlashtirish va mustahkamlash, amaliy ko‘nikmalar hosil qilish bilan bir qatorda pedagog kasbining o‘ziga xos murakkab qirralari bilan, ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya jarayonining hozirgi zamonaviy holati, ilg‘or pedagogik tajribalar bilan tanishishdir.

Pedagogik amaliyot, asosan, shahar hududi va shaharga yaqin tumanlarda joylashgan salohiyatli umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘tkaziladi. Shuningdek, fakultet ilmiy kengashi qarori bilan shahardan uzoq tumanlar ta’lim muassasalarida ham o‘tkazilishi mumkin.

Pedagogik amaliyot muddati 8 oy. Amaliyotni o‘tish vaqti tegishli ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejasiga asosan belgilanadi.

Talabalarning pedagogik amaliyot davomidagi faoliyati 100 ballik tizimda baholanadi. Bunda dasturda ko‘zda tutilgan tadbirlarning bajarilish sifati, ilg‘or pedagogik va axborot vositalaridan foydalanish darajasi, darsga va darsdan tashqari mashg‘ulotlar, tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazishga tayyorgarligi va o‘tkazish saviyasi, bilimlarni amalda qo‘llay olish qobiliyati, pedagogik faoliyatga ijodiy yondashishi, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga ola bilishi, jamoa ishlaridagi faolligi, belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilishi e’tiborga olinadi.

1. Pedagogik amaliyot mazmuni

O‘quv ishlari. Ta’lim muassasasida o‘quv jarayonini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha me’yoriy (Davlat ta’lim standartlari, ona tili va adabiyot fanni bo‘yicha o‘quv dasturlari va h.k.) hujjatlar, o‘quv-uslubiy ishlar rejasi va bu bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar, ona tili va adabiyot fanni o‘qituvchilarining taqvimiy ish rejalari, dars va darsdan tashqari o‘tkaziladigan o‘quv mashg‘ulotlari rejasi va konspektlari, sinf jurnali, o‘quvchilar bilimini baholash me’zonlari hamda ta’lim jarayonining boshqa ishchi hujjatlari bilan tanishish. Biriktirilgan o‘qituvchisi va boshqa tajribali o‘qituvchilarning darslari va darsdan tashqari o‘quv-uslubiy tadbirlarini kuzatish hamda tahlil qilish. Fan o‘qituvchisining bevosita yordamida o‘tiladigan darslarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tish. Mustaqil ravishda o‘qituvchi nazoratida o‘tiladigan tajriba darslariga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tish. Baholanadigan (sinov) darslariga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tish. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar (fakultativ dars, qo‘shimcha dars, tugarak va va h.k.) va o‘quv-uslubiy tadbirlarni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish. Boshqa

amaliyotchi talabalar darslari hamda darsdan tashqari mashg'ulotlarida ishtirok etish va tahlil qilish.

Ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlar. Ta'lim muassasasi va sinf rahbarining ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlar rejasi bilan hamda bu bo'yicha amalga oshirilgan ishlar bilan tanishish. Ta'lim muassasasi ma'muriyati va sinf rahbari tomonidan tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishda faol ishtirok etish. Ma'naviyat soatlarini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish. Sinf rahbarining ish rejasida belgilangan tadbirlarni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish. Sinfning va alohida tanlangan o'quvchining ruhiy holatlarini o'rganish va tahlil qilish, bu bo'yicha pedagogik-psixologik ma'lumotlarni jamlab borish, tahlil qilish va tavsifnoma tayyorlash.

Tashkiliy ishlar. Ta'lim muassasasi ma'muriyatining ish rejalari va ish uslublari, ichki tartib-qoidalar, pedagogik kengash va uslubiy birlashmalar ish rejalari bilan tanishish, ularning yig'ilishlarida ishtirok etish. Xo'jalik va tadbirkorlik ishlari bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni o'rganish.

Hisobot tayyorlash. Amaliyot davomida reja bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, duch kelingan qiyinchilik va muammolar hamda ularni bartaraf etish uchun ko'rilgan choralar, amaliyot jarayonini bo'yicha kundalikda qayd etib borilgan fikr-mulohazalar asosida hisobot tayyorlash. Hisobot himoyasiga tayyorgarlik ko'rish (taqdimot tayyorlash).

2. Pedagogik amaliyot bosqichlari.

2.1. Pedagogik amaliyotga tayyorgarlik ko'rish (amaliyot oldidan): fanni o'qitish metodikasi, pedagogika va psixologiya hamda kasbiy fanlar bo'yicha bilimlarni takrorlash, amaliyot dasturi bilan tanishish, mas'ul metodist o'qituvchilardan kerakli maslahatlarni olish, amaliyot oldi konferensiyasiga qatnashish.

2.2. Tanishuv amaliyoti (1 oy): ta'lim muassasasining joylashishi, tuzilmasi, hayoti, muhiti, rahbariyati va jamoasi, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari va sinf rahbari bilan tanishish. Rahbariyat, biriktirilgan fan o'qituvchisi va sinf rahbari ish rejasi, ona tili va adabiyot fanlari bo'yicha kalendar reja, konspektlar, sinf jurnallari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan tanishish, sinf bilan tanishish. Ona tili va adabiyot fanlari o'qituvchilarining darslariga qatnashish.

2.3. Passiv (kuzatish, ish o'rganish) amaliyot (1 oy): ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi va boshqa tajribali o'qituvchilar darslariga va darsdan tashqari mashg'ulotlariga qatnashish hamda tahlil qilish, fan o'qituvchisi yordamida va nazoratida o'tiladigan tajriba darslari va darsdan tashqari o'quv mashg'ulotlari hamda tarbiyaviy tadbirga tayyorgarlik ko'rish va o'tish. Biriktirilgan sinf va

alohida tanlangan o'quvchi ustida pedagogik va psixologik kuzatishlar bo'yicha ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish.

2.4. Faol amaliyot (4 oy): biriktirilgan ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi va metodistning nazoratida o'tiladigan dars va darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tish, sinov darslariga va darsdan tashqari mashg'ulot hamda tarbiyaviy tadbirlarga mustaqil tayyorgarlik ko'rish va o'tish, boshqa amaliyotchi talabalar darslariga qatnashish va tahlil qilish, pedagogik va psixologik kuzatishlar bo'yicha ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish, hisobot hujjatlarini tayyorlab borish.

2.5. Amaliyotni yakunlash (2 oy): pedagogik amaliyot hisobotini tayyorlash, hisobotga qo'shib topshiriladigan hujjatlarni tayyorlash, ta'lim muassasasi pedagogik kengashida amaliyot natijalari bo'yicha hisobot berish, ta'lim muassasasida pedagogik amaliyotning yakuniy konferensiyasiga qatnashish, hisobotni taqdimot shaklida himoya qilish.

3. Pedagogik amaliyot davomida bajariladigan ishlarning haftalar bo'yicha taqsimoti.

№	Amaliyot bosqichlari	Ish mazmuni	Ish yuklamasi
1.	**Tanishuv amaliyoti**	1. Ta'lim muassasasi rahbariyati, fan o'qituvchisi, sinf rahbari, uslubiy birlashma boshlig'i, metodist o'qituvchilar ishtirokidagi tashkiliy konferensiyada ishtirok etish. 2. Ta'lim muassasasi joylashishi, tarkibiy tuzilmasi, hayoti va muhiti, jamoasi, ona tili va adabiyot fanlari o'qituvchilari, biriktirilgin sinf va sinf rahbari bilan tanishish. 3. Tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar, rahbariyat, fan o'qituvchisi va sinf rahbarining ish rejasi, ona tili va adabiyot fanlari bo'yicha taqvimiy rejalar, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyalari va konspektlari, sinf jurnallari, o'quvchilar bilimini baholash me'zoni va o'quv-tarbiyaviy jarayon bo'yicha boshqa me'yoriy hujjatlar bilan tanishish.	
2.	**Passiv (kuzatuv) amaliyot**	1. Biriktirigan ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi va boshqa tajribali o'qituvchilarning darslariga (18-20 ta) va darsdan tashqari mashg'ulotlariga (8-10 ta) qatnashish hamda tahlil qilish. 2. Ma'naviyat soatlari va sinf rahbarining	

		boshqa darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy tadbirlarida ishtirok etish hamda tahlil qilish.	
3.	**Passiv (ish o'rganish) amaliyot**	1. Darslarga va darsdan tashqari mashg'ulotlarga hamda tarbiyaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish yo'l-yo'riqlari, darsni rejalashtirish va o'tish metodlari, dars va darsdan tashqari o'quv mashg'ulotlari konspektini tayyorlash metodlarini o'rganish. 2. O'qituvchi yordamida darslarga (2-3 ta) va darsdan tashqari o'quv mashg'uloti va tadbirlariga (1-2 ta) tayyorgarlik ko'rish, konspekt (reja) yozish va o'tish. 3. Sinf rahbari yordamida sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni (2-3 ta) tashkil etish va o'tkazish.	
4.	**Faol amaliyotni boshlash**	1. O'qituvchi nazoratida mustaqil o'tiladigan tajriba darslariga (2-3 ta) tayyorgarlik ko'rish, konspekt yozish va o'tish. 2. O'qituvchi nazoratida mustaqil o'tiladigan darsdan tashqari mashg'ulotlar va o'quv-uslubiy tadbirlarga (2-3 ta) mustaqil tayyorgarlik ko'rish, konspekt (reja) tayyorlash va o'tkazish. 3. O'qituvchi nazoratida sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish. 4. O'qituvchi nazoratida kamida bitta sinov darsiga tayyorgarlik ko'rish, konspekt yozish va o'tish.	
5.	**Faol amaliyot**	1. Sinov darslari (kamida 2 ta), darsdan tashqari sinov mashg'ulotlari va tarbiyaviy tadbirlarga (kamida 2 ta) mustaqil tayyorgarlik ko'rish, konspekt yozish va o'tkazish. 2. Boshqa talabalarning sinov darslari va dars darsdan tashqari tadbirlarida va ularning tahlilida (4-6 ta) ishtirok etish. 3. Pedagogik va psixologik kuzatishlar natijalari bo'yicha ma'lumotlarni yig'ib, tahlil qilib borish.	
6.	**Faol amaliyot**	1. Sinov darslari (kamida 2 ta), darsdan tashqari sinov mashg'ulotlari va tarbiyaviy tadbirlarga (kamida 2 ta) mustaqil tayyorgarlik ko'rish, konspekt yozish va o'tkazish.	

		2. Boshqa talabalarning sinov darslari va dars darsdan tashqari tadbirlarida va ularning tahlilida (4-6 ta) ishtirok etish. 3. Pedagogik va psixologik kuzatishlar natijalari bo'yicha ma'lumotlarni yig'ib, tahlil qilib borish.	
7.	**Faol amaliyot**	1. Sinov darslari (kamida 2 ta), darsdan tashqari sinov mashg'ulotlari va tarbiyaviy tadbirlarga (kamida 2 ta) mustaqil tayyorgarlik ko'rish, konspekt yozish va o'tkazish. 2. Boshqa talabalarning sinov darslari va dars darsdan tashqari tadbirlarida va ularning tahlilida (4-6 ta) ishtirok etish. 3. Pedagogik va psixologik kuzatishlar natijalari bo'yicha ma'lumotlarni yig'ib, tahlil qilib borish.	
8.	**Amaliyotni yakunlash**	1. Hisobotni rasmiylashtirish. 2. Hisobotga ko'shib topshiriladigan hujjatlarni tayyorlash va tartibga keltirish. 3. Ta'lim muassasasida pedagogik amaliyotning yakuniy konferensiyasida ishtirok etish. 4. Hisobot himoyasiga tayyogarlik ko'rish.	
9.	**JAMI**		

4. Pedagogik amaliyot davomida amalga oshiriladigan kundalik ishlar

1. Kundalik yuritish (reja bo'yicha bajarilgan kunlik ishlar, o'rganilgan yangi ma'lumotlar, duch kelingan muammolar va uni bartaraf etish uchun amalga oshirilgan ishlar, pedagogik amaliyot samaradorligini oshirish bo'yicha fikr-mulohazalar va boshqalar yozib boriladi).

2. Sinf va alohida tanlangan o'quvchi ustida pedagogik-psixologik kuzatish olib borish, uning natijalari bo'yicha ma'lumot to'plash va tahlil qilib borish.

3. Ta'lim muassasasi pedagogik kengashlari va fan bo'yicha uslubiy birlashma yig'ilishlarida faol ishtirok etish.

4. Ta'lim muassasasi miqyosidagi yig'ilishlar, ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishda faol ishtirok etish.

5. Amaliyot davomida paydo bo'lgan kasbiy muammolarni aniqlab, tahlil qilish va hal etib borish.

6. Ta'lim va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va o'tkazish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganib borish va tatbiq etish.

5. Pedagogik amaliyot bo'yicha hisobotning namunaviy shakli va mazmuni.

5.1. Titul varaqasi. Ta'lim yo'nalishi, kurs, guruh, talaba, uslubchi o'qituvchi, fan o'qituvchisi, guruh rahbarining ism-sharifi, amaliyot o'tilgan ta'lim muassasasi, amaliyot muddati.

5.2. Hisobot mazmuni. Amaliyot davomida bajarish belgilangan tadbirlar va uning ijrosi bo'yicha amalgan oshirilgan ishlar: amaliyotni o'tish hamda o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish va olib borish bo'yicha tanishib chiqilgan me'yoriy va ishchi hujjatlar, biriktirilgan sinf va fan o'qituvchisi, kuzatilgan va tahlil qilingan darslar va darsdan tashqari mashg'ulotlar haqida ma'lumotlar, o'qituvchi yordamida va nazoratida o'tilgan darslar va darsdan tashqari mashg'ulotlar (fakultativ dars, to'garak, qo'shimcha dars va h.k) hamda tarbiyaviy tadbirlar bo'yicha ma'lumotlar, mustaqil tayyorgarlik ko'rilgan va o'tkazilgan darslar hamda darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy tadbirlar hamda ularning baholanishi bo'yicha ma'lumotlar, ishtirok etilgan yig'ilishlar, kengashlar va boshqa ommaviy tadbirlar haqida ma'lumotlar, biriktirilgan sinf va alohida tanlangan o'quvchi ustida o'tkazilgan pedagogik va psixologik kuzatishlar hamda uning natijasi, ota-onalar bilan olib borilgan ishlar, sinf bilan o'tkazilgan tarbiyaviy tadbirlar va ma'naviyat soatlari, o'rganilgan yangiliklar, pedagogik va axborot texnologiyalari, tarbiyaviy usullar bo'yicha ma'lumotlar.

5.3. Xulosa va takliflar. Pedagogik amaliyot jarayonining tashkil etilish va o'tkazilish saviyasi, pedagogik amaliyot talabaga nima berganligi, duch kelingan qiyinchilik va muammolar hamda uni bartaraf etish uchun amalga oshirilgan ishlar, pedagogok amaliyotning sifat va samaradorligini oshirish bo'yicha fikr-mulohazalar.

6. Hisobotga qo'shib topshiriladigan hujjatlar.

6.1. Kundalik.
6.2. Fan bo'yicha o'quv dasturi, taqvimiy va tarbiyaviy ishlar rejasi.
6.3. Fan o'qituvchisi va boshqa tajribali o'qituvchilarning kuzatilgan darslari tahlillari.
6.4. Amaliyotchi talabalarning kuzatilgan darslari tahlili.
6.5. Sinov darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlar konspektlari.
6.6. Sinov darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlari tahlili bayonnomasi.
6.7. O'tkazilgan tarbiyaviy tadbirlar va ma'naviyat soatlari bayonnomalari.
6.8. Sinfga va ikki o'quvchiga tavsifnoma.
6.9. Ta'lim muassasasi rahbariyati tomonidan amaliyotchi talabaga berilgan tavsifnoma.
6.10. Amaliyotchining ish rejasi.
6.11. Ko'rgazmali qurollar.
6.12. Hisobot.
6.13. Taqdimot materiallari.

7. Hisobotni himoya qilish shakli.

Pedagogik amaliyotning hisoboti videoproyekter yordamida "Taqdimot" shaklida himoya qilinadi.

8. Taqdimot o'tkazish bo'yicha nazorat savollari.

1. Amaliyotlarning turi va shakllari haqida qanday qaror va buyruqlar bor?
2. Ilg'or tajribalarni o'rganishda nimalarga e'tibor beriladi?
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining maqsadi, vazifalari va O'MKHTga tegishli moddasining mohiyati nimadan iborat?
4. Pedagogik amaliyotlar qayerlarda amalga oshiriladi?
5. Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning asosiy omillari nimalardan iborat?
6. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadini aytib bering?
7. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining vazifalari nimalardan iborat?
8. Metodik kengash nima? Metodik kengashning maqsadi va vazifalarini ayting?
9. Metodik kengashning me'yoriy hujjatlari nima asosida tayyorlanadi?
10. Pedagogik amaliyotchi talabalarning hamda amaliyot obyekti ma'muriyatining vazifalari nimalardan iborat?
11. Pedagogik amaliyot himoyasi qanday amalga oshiriladi?
12. Tajriba almashish degani nimani bildiradi?
13. Dars tahlili o'tkazilayotganda mulohazalar, takliflar bildiriladimi?
14. O'qituvchi o'z ish tajribasi bo'yicha nima ishlar qilishi mumkin?
15. Ishchi o'quv rejasi qanday tuziladi? Kalendar reja nima?
16. Dars ta'minoti nimani bildiradi?
17. Davlat ta'lim standartlari nimalarni ishlab chiqishga asos bo'la oladi?
18. Mashg'ulot rejasining ahamiyati qanday?
19. Darsning maqsadida nimalarga e'tibor beriladi?
20. Darsning borishi necha qismdan iborat bo'ladi?
21. Tashkiliy qismda nimalarga e'tibor beriladi
22. O'quv rejalarining qanday turlarini bilasiz, ularning bir-birlariga nisbatan farqli jihatlarini bayon eting.
23. Tayanch o'quv rejasi bilan namunaviy o'quv rejasi qanday jihatlari bilan farqlanadi?
24. Ishchi o'quv rejasini tuzishda nimalar hisobga olinadi?
25. Ta'lim muassasalarida qanday turdagi o'quv dasturlaridan foydalaniladi?
26. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hamda umumta'lim maktablari tizimi huquqiy-me'yoriy asoslariga nimalar kiradi?
27. O'quvchilar bilimini aniqlashda foydalaniladigan didaktik materiallarga nimalar kiradi?
28. Dars kuzatishda o'qituvchi vazifasiga qanday baho beriladi?
29. O'qituvchining shaxsiy fazilati deganda nimani tushunasiz?
30. Fan va uning mavzusi bo'yicha o'qituvchining bilim darajasi qanday baholanadi?
31. Pedagogik mahorat degani nima?
32. Dars sifati qanday baholanadi?

9. O‘qitish vositalari.

1. Kodoskop.
2. Videoproyektor.
3. Kompyuter.
4. Vatman qog‘ozi, magnit, rangli flamasterlar, markerlar.
5. Slaydlar.

PEDAGOGIK AMALIYOT BO‘YICHA O‘QUV-ISHCHI DASTUR VA REJA

T.r.	Amalga oshiriladigan vazifalar	O‘tkazilad i-gan joy	Ijro muddati	Mas’ul
1.	Fakultet talabalarining pedagogik amaliyot o‘tish uchun boradigan o‘quv yurtlari, amaliyot muddati va metodist-rahbarlarning tayinlanishi yuzasidan buyruq loyihasini rektoratga taqdim etish.	Fakultetda	Fakultetda	Kafedra mudiri, fakultet dekani
2.	Pedagogik amaliyot o‘tkazilishidan ko‘zda tutilgan maqsad, talabalar oldida turgan vazifalar yuzasidan anjuman o‘tkazish.	Fakultetda	Amaliyot boshlanishi dan bir kun oldin	Dekan, amaliyot rahbari, metodistlar
3.	Amaliyot o‘tkaziladigan o‘quv yurtlarida seminar tashkil etish, pedagoglar jamoasi bilan uchrashuv tashkil etish.	Shartnoma tuzilgan o‘quv yurtlarida	Amaliyot boshlangan kun	Amaliyot rahbari, metodistlar
4.	Amaliyotchi-talabalarni fan o‘qituvchilari, sinf rahbarlariga biriktirish.	Shartnoma tuzilgan o‘quv yurtlarida	Amaliyot boshlangan kun	Metodistlar, o‘quv yurti ma’muriyati
5.	Amaliyotchi-talabalarning biriktirilgan sinflari va fanlari bo‘yicha dars jadvalini tuzish.	Shartnoma tuzilgan o‘quv yurtlarida	Amaliyot boshlangan kun	Metodistlar, o‘quv yurti ma’muriyati
6.	Amaliyotchi-talabalarning o‘quv yurtida bajaradigan navbatchilik jadvalini tuzish.	Shartnoma tuzilgan o‘quv yurtlarida	Amaliyot boshlangan kun	Metodistlar, o‘quv yurti ma’muriyati
7.	Amaliyotchi-talabalar: 7.1. Pedagogik amaliyotga doir adabiyotlar, dastur va ish rejalari bilan tanishish. 7.2. O‘quv yurti va uning pedagoglar jamoasi bilan tanishish. 7.3. Ilg‘or o‘qituvchilarning ish tajribasi bilan tanishish.	Shartnoma tuzilgan o‘quv yurtlarida	Amaliyotni ng birinchi haftasida	Amaliyotchi - talabalar
	7.4. Fan o‘qituvchilarining o‘quv, tarbiyaviy ishlar rejasi bilan tanishish. 7.5. Fan bo‘yicha darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, uslubiy tavsiyalar bilan tanishish. 7.6. O‘ziga biriktirilgan sinf o‘quvchilari bilan tanishish. 7.7. O‘ziga biriktirilgan sinf bo‘yicha ona tili va adabiyotdan ish reja tuzish, dars konspekti tayyorlash. 7.8. O‘quv yurti o‘qituvchilarining darslarini kuzatish, tajribalarini o‘rganish. 7.9. O‘quvchilarning ota-onalari bilan tanishish, suhbatlashish. 7.10. O‘quv yurtida o‘tkaziladigan tadbirlarga ishtirok etish.			
8.	O‘quv yurti o‘qituvchilarining darslarini kuzatish, tajribalarini o‘rganish, tegishli daftariga qayd etib borish(10 soat).	Shartnoma tuzilgan o‘quv yurtlarida	Amaliyot davomida	Amaliyotchi - talabalar
9.	O‘z kursdoshlarining darslarini kuzatish, yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish, tegishli daftariga qayd etib borish(10 soat ona tilidan, 10 soat adabiyotdan).	Shartnoma tuzilgan o‘quv yurtlarida	Amaliyot davomida	Amaliyotchi - talabalar
10.	Ona tili va adbiyotdan mustaqil dars o‘tish, har bir dars uchun konspekt ishlanma tayyorlash, o‘quv yurti ma’muriyatiga tasdiqlatish(har hafta kamida ikki soatdan).	Shartnoma tuzilgan o‘quv yurtlarida	Amaliyot davomida	Amaliyotchi - talabalar
11.	Kursdoshlarining darslariga opponentlik qilish (10 soat).	Shartnoma tuzilgan o‘quv yurtlarida	Amaliyot davomida	Amaliyotchi - talabalar
12.	Ona tili va adbiyotdan ko‘rgazmali qurollar, plakatlar, jadvallar, tarqatma materiallar, kartochkalar, chizmalar va h.k. tayyorlash.	Shartnoma tuzilgan o‘quv yurtlarida	Amaliyot davomida	Amaliyotchi - talabalar
13.	Darsdan tashqari tadbirlar rejasini tuzish va tadbirlarni o‘tkazish: 13.1. Fan to‘garagi mashg‘ulotlarini o‘tkazish. 13.2. Sinf devoriy gazetasini	Shartnoma tuzilgan o‘quv yurtlarida	Amaliyot davomida	Amaliyotchi - talabalar

	chiqarish. 13.3. O'quvchilar bilan uchrashuv o'tkazish. 13.4. Kitobxonlar anjumani tashkil etish. 13.5. O'quvchilar bilan sayohat tashkil etish. 13.6. Bayram tadbiri uyushtirish.			
14.	Jadval bo'yicha o'quv yurtida navbatchilik qilish.	Shartnoma tuzilgan o'quv yurtlarida	Amaliyot davomida	Amaliyotchi - talabalar
15.	Fan bo'yicha seksiya kunlari fakultetga kelish va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan haftalik hisobot topshirish.	Shartnoma tuzilgan o'quv yurtlarida	Amaliyot davomida	Amaliyotchi - talabalar
16.	Amaliyotchi talabalarning shartnoma tuzilgan o'quv yurtiga, darslarga, tadbirlarga muntazam qatnashishlarini nazorat qilish.	Shartnoma tuzilgan o'quv yurtlarida	Amaliyot davomida	Metodist-o'qituvchilar
17.	Pedagogik amaliyot davri yuzasidan hisobot tayyorlash.	Shartnoma tuzilgan o'quv yurtlarida	Amaliyot oxirida	Amaliyotchi - talabalar
18.	O'ziga biriktirilgan sinf o'quvchilariga, shuningdek ulardan biriga alohida pedagogik-psixologik tavsifnoma tayyorlash.	Shartnoma tuzilgan o'quv yurtlarida	Amaliyot oxirida	Amaliyotchi - talabalar
19.	Universitet, fakultet rahbariyati, metodistlar oldida amalga oshirgan ishlari taqdimotini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish.	Fakultetda	Amaliyot tugagach	Amaliyotchi - talabalar
20.	Pedagogik amaliyot bo'yicha tegi hujjatlarni kafedraga topshirish.	Fakultetda	Taqdimotdan so'ng	Amaliyotchi talabalar
21.	Talabalarning o'quv yurtlarida o'tkazgan pedagogik amaliyotlari yuzasidan hisobot tayyorlash, kafedraga. dekanatga, o'quv-uslubiy boshqarmaga tegishli qo'shmcha ilova hijjatlar bilan topshirish.	Fakultetda	Amaliyot tugagach	Kafedra mudiri, amaliyot rahbari, metodist o'qituvchilar

TAQDIMOT O'TKAZISH BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI:

1. Amaliyotlarning turi va shakllari haqida qanday qaror va buyruqlar bor?
2. Ilg'or tajribalarni o'rganishda nimalarga e'tibor beriladi?
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining maqsadi, vazifalari va O'MKHTga tegishli moddasining mohiyati nimadan iborat?

4. Pedagogik amaliyotlar qayerlarda amalga oshiriladi?
5. Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning asosiy omillari nimalardan iborat?
6. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadini aytib bering?
7. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining vazifalari nimalardan iborat?
8. Metodik kengash nima? Metodik kengashning maqsadi va vazifalarini ayting?
9. Metodik kengashning me'yoriy hujjatlari nima asosida tayyorlanadi?
10. Pedagogik amaliyotchi talabalarning hamda amaliyot obyekti ma'muriyatining vazifalari nimalardan iborat?
11. Pedagogik amaliyot himoyasi qanday amalga oshiriladi?
12. Tajriba almashish degani nimani bildiradi?
13. Dars tahlili o'tkazilayotganda mulohazalar, takliflar bildiriladimi?
14. O'qituvchi o'z ish tajribasi bo'yicha nima ishlar qilishi mumkin?
15. Ishchi o'quv rejasi qanday tuziladi? Kalendar reja nima?
16. Dars ta'minoti nimani bildiradi?
17. Davlat ta'lim standartlari nimalarni ishlab chiqishga asos bo'la oladi?
18. Mashg'ulot rejasining ahamiyati qanday?
19. Darsning maqsadida nimalarga e'tibor beriladi?
20. Darsning borishi necha qismdan iborat bo'ladi?
21. Tashkiliy qismda nimalarga e'tibor beriladi
22. O'quv rejalarining qanday turlarini bilasiz, ularning bir-birlariga nisbatan farqli jihatlarini bayon eting.
23. Tayanch o'quv rejasi bilan namunaviy o'quv rejasi qanday jihatlari bilan farqlanadi?
24. Ishchi o'quv rejasini tuzishda nimalar hisobga olinadi?
25. Ta'lim muassasalarida qanday turdagi o'quv dasturlaridan foydalaniladi?
26. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hamda umumta'lim maktablari tizimi huquqiy-me'yoriy asoslariga nimalar kiradi?
27. O'quvchilar bilimini aniqlashda foydalaniladigan didaktik materiallarga nimalar kiradi?
28. Dars kuzatishda o'qituvchi vazifasiga qanday baho beriladi?
29. O'qituvchining shaxsiy fazilati deganda nimani tushunasiz?
30. Fan va uning mavzusi bo'yicha o'qituvchining bilim darajasi qanday baholanadi?
31. Pedagogik mahorat degani nima?
32. Dars sifati qanday baholanadi?

Talabalar pedagogik amaliyoti uchun texnologik xarita

O'quv yili: 2024-2025
Maksimal baho: 5
Saralash baho: 3

Reyting ballarining taqsimoti:

T.r	Bajariladigan ishlar	Maksimal baho	Saralash baho
1.	Fan dasturi, fanlardan ish reja, darslar konspekti, kundalik	5	3
2.	O'qituvchilar va talabalar darsini kuzatish	5	3
3.	Mustaqil dars o'tish: ona tilidan	5	3
4.	Mustaqil dars o'tish: adabiyotdan	5	3
5.	Sinfdan tashqari tadbirlar o'tkazish	5	3
6.	Ko'rgazmali qurollar tayyorlash	5	3
7.	Sinf o'quvchilari va ikki o'quvchiga tavsifnoma	5	3
8.	Amaliyot davri bo'yicha oylik hisobot	5	3
9.	Amaliyot davri bo'yicha yillik hisobot	5	3
10.	Pedagogik amaliyot bo'yicha taqdimot	5	3
	Baho	5	3

Amaliyotchi-talabalarning kafedraga topshiradigan hujjatlari ro'yxati:

1. Kundalik.
2. O'tiladigan fanlar bo'yicha kalendar ish rejasi.
3. Sinf rahbarining tarbiyaviy ish rejasi.
4. Amaliyotchining ish rejasi.
5. Bir sinf o'quvchilariga pedagogik-psixologik tavsifnoma.
6. Bir o'quvchiga pedagogik-psixologik tavsifnoma.
7. Kuzatilgan darslar tahlili daftari.
8. O'tilgan darslarning konspekt ishlanmasi.
9. Ko'rgazmali qurollar.
10. Amaliyotchiga maktab ma'muriyati tomonidan berilgan tavsifnoma.
11. Amaliyotchining hisoboti.
12. Taqdimotda komissiyaning amaliyotchiga bergan bahosi qayd etilgan ma'lumotnoma.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti uchinchi kurs talabasi
_____ 2024-2025-o'quv yilida
_____dagi ___-umumta'lim maktabida o'tadigan
pedagogik amaliyoti davri uchun

ISH REJASI

T.r.	Rejalashtirilgan tadbir	Bajarilish muddati	Izoh
1.	Pedagogik maliyot kundaligi tutish va uni to'ldirib borish.	Pedagogik amaliyot davrida.	
2.	Ona tili va adabiyot fanlaridan DTS asosidagi o'quv dasturini yozib olish, o'rganish.	Sentabr oyida.	
3.	Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasini yozib olish, o'rganish, tadbirlarda qatnashish.	Pedagogik amaliyot davrida.	
4.	Ona tili va adabiyot fanlaridan yillik va choraklik ish rejasini yozib olish, o'rganish.	Sentabr, oktabr oylarida.	
5.	Maktab o'qituvchilari darslarini kuzatish, dars tahlillarida ishtirok etish.	Pedagogik amaliyot davrida.	
6.	Kuzatilgan darslar tahlili uchun daftar tutish va uni to'ldirib borish.	Pedagogik amaliyot davrida.	
7.	O'tiladigan darslar uchun konspekt tuzish, dars ishlanmalari tayyorlash, tasdiqlatish.	Pedagogik amaliyot davrida.	
8.	Mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar, testlar, kartochkalar, krossvordlar tayyorlash.	Pedagogik amaliyot davrida.	
9.	Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan haftalik hisobot yozish va kafedraga topshirish.	Har hafta dushanba.	
10.	Biriktirilgan sinf o'quvchilariga va alohida ikki o'quvchiga tavsifnoma yozish.	Pedagogik amaliyot oxirida.	
11.	Pedagogik amaliyot davri uchun hisobot tayyorlash.	Pedagogik amaliyot tugagach.	
12.	Fan o'qituvchisi, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari va direktor imzosi bilan tavsifnoma olish.	Pedagogik amaliyot tugagach.	
13.	Tayyorlagan ko'rgazmali qurollari, testlari, kartochkalari, krossvordlaridan namunalarni kafedraga topshirish .	Pedagogik amaliyot tugagach.	
14.	Pedamaliyot natijalari bo'yicha taqdimot va hujjatlarni tayyorlash, kafedraga topshirish.	Pedagogik amaliyot tugagach.	
15.	Pedagogik amaliyot davrida bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot berish, taqdimotli sinovdan o'tish.	Jadval asosida	

Pedagogik amaliyot rahbari : **G.Ernazarova**

Amaliyotchi-talaba: _____

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Filologiya fakulteti

Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi

Amaliyotchi

_____ning

Samarqand shahridagi ___-son o‘rta umumta’lim maktabida o‘tayotgan pedagogik amaliyoti bo‘yicha haftalik HISOBOTI

2024-yil_____dan 2025-yil_____gacha

Amaliyot rahbari: G.Ernazarova.

Samarqand - 2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Filologiya fakulteti

Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili

yo‘nalishi

Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi

Amaliyotchi _____ning Samarqand shahridagi ___-son o‘rta umumta’lim maktabida _____fanidan _____

_____

mavzusida o‘tgan ochiq darsi ishlanmasi

Amaliyot rahbari: G.Ernazarova

Samarqand - 2024

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдураимова М. Она тили таълимида илғор педагогик технология. – Т.: 2001, 2005.
2. Абдумажидов Ғ. "Ўзбекистон Республикасининг давлат тили ҳақида"ги қонунга шарҳлар. . – Т.: Адолат, 2004.
3. Ahmedova H. O'zbek tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. – T.: Tafakkur, 2012.
4. Boltayev M. Lotin yozviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi. – T.: O'qituvchi, 2003. Internetdagi manzili: www.samdu.uz/files/web/index.htm
5. Бекмурадов А., Голиш Л.. Лойиҳавий таълимнинг технологияси. – Т.: ТДИУ, 2009.
6. 5220110 – Филология (ўзбек филологияси) таълим йўналиши бўйича ўқув дастурлари. Адабиёт ўқитиш методикаси ўқув дастури. – Т.: ЎзМУ нашриёти, 2003.
7. Голиш Л., Файзуллаева Д.. Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш. – Т.: ТДИУ, 2010.
8. Davlat tilida ish yuritish, hujjatchilik va atamashunoslik. Tuzuvchi: Boltayev M. – Samarqand: SamDU, 2007.
9. Дўстмуродова О. Она тили таълими янги педагогик технологиясининг моҳияти. Т.: 2005.
10. Зуннунов А. ва бошқалар. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи. 1992.
11. Ишмуҳаммедов Р., Абдукодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар.– Т.: 2008.
12. Йўлдошев Қ., Мадаев О., Абдураззоков А. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Университет, 1994.
13. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1996.
14. "Ma'rifat" gazetasi. 2006-2013-yillar sonlari.
15. Мирзақулов Т. Грамматика ўқитишнинг лингвистик асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1994.
16. Назарова С. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1992.
17. Орипов К., Обидова М. Ифодали ўқиш. – Т.: Ўқитувчи, 1994.
18. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 1995-2013-yillardagi sonlari.
19. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: «Yangi asr avlodi». 2-nashri. 2011-yil.
20. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Алишер Навоий номидаги ЎзМК нашриёти, 2012.
21. To'xliyev B., Yusupova Sh., Ziyodova T., Oxunjonova O., Jumashev D. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zMK nashriyoti, 2012.

22. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zMK nashriyoti, 2010.
23. Ходиев Б., Бекмурадов А.. Кейс технологияси. – Т.: ТДИУ, 2010.
24. Ходиев Б., Бекмурадов А.. Илмий фаолиятга тайёргарлик асослари. – Т.: ТДИУ, 2010.
25. Ходиев Б., Л.Голиш. Мустақил ўқув фаолиятини ташкил этиш усул ва воситалари. – Т.: ТДИУ, 2010.
26. Худойбердиев А. Адабиёт ўқитиш методикаси фанидан фойданиладиган адабиётлар рўйхати. – Самарқанд. СамДУ. 2006.
27. Худойбердиев А. Адабиётдан ноанъанавий дарслар. Услубий қўлланма. – Самарқанд. СамДУ. 2006.
28. Худойбердиев А., Индаиминов Н., Бобожонов Б.. Ўқув ишлаб чиқариш амалиёти низоми ва ўқув дастури. – Самарқанд. СамДУ. 2010.
29. Худойбердиев А. Адабиёт ўқитиш методикасидан амалий машғулотлар. – Самарқанд. СамДУ , 2008.
30. Худойбердиев А. Узлуксиз педагогик амалиёт: ташкил қилиш, баҳолаш ва маркетинг хизмати. Услубий қўлланма. – Самарқанд. СамДУ. 2009.
31. Худойбердиев А. Намунали очиқ дарслик ташкил қилиш. Услубий қўлланма. – Самарқанд. СамДУ. 2010.
32. Худойбердиев А. Ўқув ишлаб чиқиш амалиёти ва ишчи ўқув дастури. Услубий қўлланма. – Самарқанд. СамДУ.2010.
33. Худойбердиев А. Адабиёт ўқитишда инновацион технологиядан фойдаланиш. Услубий қўлланма. – Самарқанд. СамДУ.2010.
34. Худойбердиев А. Сўзнинг сеҳрли қудрати. Услубий тавсиянома. – Самарқанд. СамДУ. 2012.
35. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010.
36. O'zbek tilining imlo lug'ati. – T.: O'qituvchi, 2000.
37. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1995-2013-yillardagi sonlari.
38. Ҳожиев А. Ўзбек тилининг изоҳли лингвистик луғати. – Т.: ЎзМЭ, 2002.
39. Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасалари талабаларининг малакавий амалиёти ҳақида низом. "Олий таълим" меъёрий ҳужжатлар тўплами. – Т.: Шарқ, 2001.
40. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Таълим тўғрисида. Олий таълим. Меъёрий-ҳуқуқий ва услубий ҳужжатлар тўплами. – Тошкент: "Истиқлол" нашриёти шўъба корхонаси бош таҳририяти, 2004. 3-8-бетлар.
41. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида. Олий таълим. Меъёрий-ҳуқуқий ва услубий ҳужжатлар тўплами. – Тошкент: "Истиқлол" нашриёти шўъба корхонаси бош таҳририяти, 2004. 9-23-бетлар.

42. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2010.

43. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 5 январдаги “Узлуксиз таълим тизими учун давлат таълим стандартларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш тўғрисида”ги 5-сонли қарори.

44. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 16 октябрдаги “Ўрта махсус, касб-ҳунар таълими давлат стандартларини тасдиқлаш тўғрисида” ги 400-сонли қарори.

45. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 28 майдаги “Малакали педагог кадрлар тайёрлаш ҳамда ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасаларини шундай кадрлар билан таъминлаш тизимини янада такомиллаштиришга оид чора-тадбирлар тўғрисида”ги 1761-сонли қарори. “Халқ сўзи” газетаси, 2012 йил 29 май.

46. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 10 августдаги “Ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш тизимини янада такомиллаштиришга доир чора-тадбирлар тўғрисида”ги 242-сонли қарори.

47. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томли. – Т.: ЎзМЭ, 2006-2008.

48. O‘zbek tilinin asosiy imlo qoidalari. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1995.

49. Ғуломов А., Қодиров М. Она тили ўқитиш методикаси. – Т.: Университет, 2001.

50. Ғуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. – Т.: Ўқитувчи, 1995.

51. Ҳожиаҳмедов А. Мактабда аруз вазнини ўрганиш. – Т.: Ўқитувчи, 1998.

52. Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Т.: Шарқ, 1998.

53. Ҳожиев А. Ўзбек тилининг изоҳли лингвистик луғати. – Т.: ЎзМЭ, 2002.

54. Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1967.

55. Ҳотамов И., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1979.

Internet va ZiyoNet saytlari:

1. www.thinsan.com
2. www.dersimiz.com
3. www.altinmiras.com
4. www.ziyonet.uz